



2023-yil. 4-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI
Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING |

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584

2023-yil
4- son

«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»
ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал



Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'iqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulkumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Lutfullo Jo'rarev
(bosh muharrir o'rinosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)
Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)
Barno Kadirova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

MUNDARIJA

TAHLIL

Shuxrat Mardonov.	"Sharhi mulla Jomiy" asarida zikr qilingan mashhur olimlar	3
Nilufar Namazova.	Millatparvarlik qomuslarda	6
Maftuna O'ranova.	"Boychechak" to'plamidagi allalarning badiiy-tavsiyf tahlili	7
Shahnoza Nurmamatova.	Xitoy xalq ertaklarda ajdarho obrazi	9
Gulchehra Darvishova.	Effectiveness of using grammar games in teaching english	11
Muhabbat Ruzmetova.	Biznes ingliz tilini o'qitishning lingvodidaktik aspekti	13
Malika Rajapova, Alijon Mamajonov.	Allegorik vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari	15
Nargiza Aliyeva.	Euphemism and related stylistic devices	17
Shohida Isakova.	Tillardagi konceptual axborotni faollashtiruvchi strukturalar	19
Zulaykho Juraeva, Sarvinoz Khayrullaeva.	The use of dictionaries in teaching foreign language	20
Nilufar Shirokova.	Языковой параллелизм как научное явление	22
Dilnur Bozorova.	O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	24

TADQIQOT

Zafar Mamatalimov.	Anvar Obidjon she'riyatining janr va mavzu rang-barangligi	26
Xushnud Madraimov, Azimjon Majitov.	O'quvchi-yoshlar tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati	29
Bunyod Ergashev, Fazliddin Shamsiyev.	Nemis tili fanini o'zlashtirishda talabaning kompetensiyalarni baholash mazmuni	31
Gulbahor Shakirova.	Fikrni yozma bayon qilishni o'rgatish va imlo ustida ishlash	34
Xolida Valiyeva.	Ta'lim tizimida tillarni o'qitish metodikasi	35
Maxbuba Qarshiyeva.	"Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlarda adab, tavoze, vafo, qanoat kabi fazilatlar tarannumi	38
Zulayxo Abdunazarova.	Talabalarning reproduktiv salomatlikka oid bilimlarni takomillashtirishning ahamiyati va dolzarbligi	39
Rayxon Rasulova.	O'quvchi tafakkurini o'stirishda badiiy asarlarning ahamiyati	41
Dildora Axatova.	Ibn Sino jism, ruh va aql mutanosibligining ahamiyati va tadqiqi	42
Dilobar Xoshimova.	Interaktiv fanlarni o'qitishda talabaning kreativ qobiliyatini shakllantirishning metodik ahamiyati	44
To'iqin Allayorov.	Badiiy matnda qo'llanilgan buyruq birlilklarining lingvopoetik xususiyatlari	45
Nargiza Aliyeva.	"Baxt" va "baxtsizlik" konseptiga oid frazeologik iboralarning milliy-madaniy xususiyatlari	47
G'ulom Bobojonov.	Adabiyot nazariyasini o'rganishda tarixiy yondashuv	48
Islom Bo'riyev.	O'zbek tilidagi iboralarni korpusda semantik teglash: muammo va yechim	51
Maxmuda Yuldasheva.	Adabiy ta'limda evristik yondashuvga qo'yildagan psixologik, pedagogik, metodik talablar	54
Zuhra Qarshibo耶eva.	Alisher Navoiy lirik merosi va poetik olami	56
Nargiza Xusenova.	Ona tili fanini o'qitishda nutqiy ko'nilmalarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik vositalardan foydalanish	58
Munojat Rasulova.	Diskurs va uning antroposentrik tilshunoslikdagi mavqeyi masalasi	62
Nigora Rustambekova.	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari	65
Safo Matchonov.	Anvar Obidjon ijodida kichkintoylar ma'nnaviyatining badiiy ifodasi	66
Yulduz Shaymanova.	Abdulla Oripov ijtimoiy lirikasi	68
Laylo Doliyeva.	Frazeologizmlardagi salbiy emotsiyalar klasterining kognitiv xususiyatlari	70
Zarina Kurbanova.	Tilshunoslik fanning asosiy tushunchalari va muammolari	73
Toshqobil Muqumov.	Fransuz tilidagi frazeologik birliliklarning o'ziga xos tomonlari	75
Gulruk Qilichova.	Fransuz adabiyotida realizm yo'nalishi	76
Farrux Qulsaxatov.	Integrativ yondashuv Bobur ijodi talqinida	77
Nilufar Usmanova.	Ingliz tilini o'qitishda o'yinlarning roli	79

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Hilola Turopova. Ergash Jumanbulbul o'g'li dostonlari matnidagi maqollarning struktural-grammatik xususiyatlari	81
Xusniddin Bobokulov. O'zbek tilida frazemalashuv hodisasi va uning mohiyati	82
Gulchehra Imomova. Hikoya janrida inson va insoniylik konsepsiysi	84
Davron Mansurov. Siyosiy partiyalarning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni	86
Dinara Islamova. Lisoniy representatsiya – olamning badiiy manzarasining asosiy mexanizmi sifatida	88
Obit Karimov, Akram Hamdamov. Metaforik tasvir mahorati	90
Qahramon Rayimov. Reklama matnlariga qo'yiladigan lingvistik talablar	94
Umida Muminova. "Mahbub ul-qulub" asaridagi forsiy o'zlashmalar	97
Gulirano Muhiddinova. Rus tilini o'qitishda til va nutq aspektlari, o'qitishdagi aspektlik va murakkablik	99
Yulduz Ne'matova. Ayrim oykonimik indikatorlar xususida	101
Jasur Tirkashev. Til korpuslariga matn kiritishda qo'yiladigan talablar	103
Arman Rsaliev. The model of teaching through didactic games to develop students' communicative competence in elementary school	105
Kamola Alautdinova, Nargiza Jumabayeva. Axborot-kommunikatsiya terminlari va ularning rivojlanish bosqichlari	107
Muhabbat Yusupova, Madina Malikova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida engliz tili fanida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananishing yangi usullari	110
Dilfuza Ataullayeva. Norms and use franc etiquette	112
Dilshoda Tursunova. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi folklorizmlarda arxaizmlarning nutqiyo voqelanishi	113
Nigina Zulfanova, Zarningor Tashkulova. Kатегория коннотативности / еконнотативности в словосочетании английского языка	114
Muqadas Murodova. Ingliz va o'zbek adabiyotida satira talqini	116
Gulbahor Shakirova. Fikrni yozma bayon qilishni o'rgatish va imlo ustida ishlash	117
Nigina Axmedova. Ingliz tilida leksemalashuv hodisasi	119
Zaxiriddin Sulaymanov. Adabiyotda agiografiyaning ildizlari	120

KICHIK TADQIQOT

Azamat Azimov. Development of speaking skills through communicative teaching technology at english lessons	123
Aynur Ibdullayeva. O'zbekiston xalqaro madaniy aloqalarning rivojlanishida Sharaf Rashidov publisistikasining o'rni	125
Gulnoza Xudoiberdiyeva. Maqol va uning janr xususiyatlari	126
Xolida Ro'ziyeva. "Oydinda yurgan odamlar" qissasi qahramonlari psixologiyasi	127
Madina Ashirbayeva. Experimental process of using a webquest task "I am talented" in grade 10 students	128
Nazokat Shermatova, Hilola Makusdova. A model of esp needs analysis	129
Shakhzoda Ashurova. Use of the pedagogical technology "logical-seminal model" in the system of retraining foreign language teachers	131
Emina Achilova. The role of literature lessons in the formation of students' key competences	133
Ezoza Khazratkulova, Jamila Djumabaeva. Method of psycholinguistic analysis in english lessons	135
Zukhra Narbekova. The importance of reading comprehension skills in language learning	136
Nargiza Uzoqova. 5-Sinf ona tili mashg'ulotlarida sinonimlar lug'atini tuzish metodikasi	139
Ochilbek Yulbarsov. Korpus – leksikografik ma'lumotlar bazasi uchun lingvistik instrument sifatida	140

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Шахноза Туйчибаева. Разработка занятия на тему «Сложное предложение»	143
Агата Осипова. Особенности организации факультативного занятия по русскому языку для иноязычной аудитории	145
Эльвина Велишаева. Согласованное и несогласованное определение на материале лексической темы «Портрет»	147
Замира Нурманова. Евгений Клюев «Сказки на всякий случай» («Отрывной Календарь»)	149

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Лола Идиева. Переработка лексики в классе	152
Умсалима Холметова. Развитие монологической речи	153

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гулноза Нарбаева. Метафорическое представление денег как воды / жидкости в русской языковой картине мира	156
Муштарибону Зайлобидинова. Актуальность изучения концепта «земля» в лингвокультурологическом аспекте	158
Мухлиса Курбанова, Дилбар Джуманова. Неологизмы в российских электронных СМИ	160

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Мадина Рустамова. Проблема характеростроения в романах Владимира Набокова	162
---	-----

ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА

Музайяна Одилова. Средневековая «Повесть о Хон Гильдоне» как культурное явление в литературе	164
--	-----

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Диана Кадымова. Ономастический принцип интерпретации текстов Алишера Навои	167
--	-----

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ СТАНДАРТЫ

Гулноза Сабирова. Содержательный компонент структуры веб-компетенции учителя английского языка	170
--	-----

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Мадинабону Ахмедова. Инновационный подход к обучению русскому языку как иностранному	173
--	-----

Kamola ALAUTDINOVA,
O'zbekiston milliy universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedrasi katta
o'qituvchi, PhD;
Nargiza JUMABAYEVA,
O'zbekiston milliy universiteti, Ingliz tilshunosligi
kafedrasi magistranti

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TERMINLARI VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada termin va terminologiya sohasiga oid qisqacha fikr-mulohalazalar va turli olimlarning terminologiya sohasiga nisbatan yondashuvlari berib o'tilgan. Shuningdek, maqolada asosan AKT terminlari va ularning kundalik hayotimizda qanday o'r'in tutishi, ularning tilga qay yo'sinda kirib kelishi va shakllanishi yuzasidan bir qancha ma'lumotlar keltirilib, tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, AKT terminlari, terminlarning rivojlanish bosqichi.

Аннотация. В данной статье даны краткие комментарии к термину и области терминологии и подходы разных ученых к области терминологии. Также в статье в основном содержится некоторая информация о терминах ИКТ и их месте в нашей повседневной жизни, о том, как они входят в язык и как образуются.

Ключевые слова: термин, терминология, термины ИКТ, этапы развитие терминов.

Annotation. In this article, brief comments on the term and the field of terminology and the approaches of different scientists to the field of terminology are given. Also, the article mainly contains some information about ICT terms and their place in our daily life, how they enter the language and how they are formed.

Keywords: terms, terminology, ICT terms, stages of development of terms.

Termin va terminologiya sohasi hozirda eng ko'p o'rganilayotgan va bahs-munozaraga sabab bo'layotgan yo'nalish hisoblanadi. Har bitta soha o'z termini, ya'ni atamasiga ega. Biz biror mavzu yuzasidan suhbat olib borayotganimizda, albatta, shu sohaga, masalan, ta'lif, tibbiyot yoki harbiy sohaga oid terminlarni ko'proq ishlatishga harakat qilamiz. Bugungi rivojlanib borayotgan davorda esa axborot-kommunikatsiya tizimiga oid terminlar ham nutqimizda keng qo'llanila boshlandi. Bunga asosiy sabab esa texnika va texnologiyadagi eng so'nggi o'zgarishlar va ularning inson hayotining bir bo'lagiga aylanib qolishidir.

"Termin" lotincha "terminus" so'zidan olingan bo'lib, "oxiri", "chek", "chevara", "tugash" degan ma'nolarni bildiradi. V.N.Shevchuk terminga quyidagicha ta'rif beradi: "Termin bu – so'z bo'lib, o'rta asrlarda "aniqlash", "ifodalash" degan ma'nolarni ifodalagan. Qadimgi fransuz tilida mavjud bo'lgan "terme" leksemasi "so'z" degan ma'noni anglatadi".

Termin bu – so'z bo'lib, o'zining alohida va maxsus belgilari bilan chegaralanadi, fan, texnika, iqtisodiyot, siyosat va diplomatiya sohalarida bir ma'noli, aniq so'zdir. U ekspressivlikdan xoli, muayyan predmet yoki tushunchani ifoda etuvchi, o'zining qat'iy va aniq mazmuniy chegarasiga hamda izohiga ega bo'ladi".

V.P.Danilenko termin so'ziga quyidagicha aniqlik kiritadi: "Termin(lar) lug'at tarkibining bir qismi hisoblanib, muayyan fan va soha leksik birliklarining aniq nomi, ta'rifidir. Terminga nisbatan turli xil qarashlar bo'lib, eng dastlabki fikrlar V.G.Gak tomonidan quyidagicha berilgan "termin – funksiya, lug'aviy birlik qo'llanishining bir ko'rinishi".

A.Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, "... terminlar bu – maxsus so'zlardir", degan xulosaga keladi.

L.Alekseyevaning fikricha, so'z va terminning munosabatlari "xolislik tamoyiliga quriladi: so'z birlamchi, termin ikkilamchi hosiladir. Termin qayta kodlashtirilgan belgidir".

H.Jamolxonov terminga munosabat bildirar ekan, quyidagicha yozadi: "terminlar fan-texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohlarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarini ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to'rburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi".

Terminologiya – terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmuyi ma'nolarini anglatadi. Terminologiyaning fan sifatida tarkib topishi avstriyalik O.V.Nubasov va rus olimi D.S.Lottening dastlabki ishlariiga borib taqaladi. Hozirgi paytda Avstriya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Chexiya kabi mamlakatlarda terminologiya maktablari yuzaga kelgan. Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi, deb qaraladi.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi.

X.Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llaniladigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz.

H.Felberning fikricha, "terminologiya" termini 3 xil tushunchaga ega: 1. Terminologiya sohalararo fan bo'lib, u maxsus tushunchani ifodalovchi termin, belgi kabilarni o'rganadi. 2. Terminologiya – maxsus sohaga oid tushunchalar tizimini ifodalovchi terminlar majmuyi. 3. Terminologiya – terminlar bilan ifodalangan maxsus soha tushunchalarining targ'ib etilishi.

A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasb-korlikda ishlatalidigan so'zлarni "maxsus leksika" deb ataydi va unikki guruhga ajratadi: 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U o'z fikrini davom ettirib, "termin bilan professionalizmlar o'tasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasiidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqagan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lмаган yarim rasmiy so'zdir", deydi.

Quyidagi fikrlardan kelib chiqib, A.V.Kalininga oid ta'rif haqiqatga ancha yaqin deyish mumkin va yillar mobaynida qilingan o'zgarishlar buni isbotladi. Ammo, o'zbek olimlari bu fikrga quyidagicha munosabat bildirishadi.

R.Doniyorov bu fikrga e'tirozan, "Bunday qat'iy da'vo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim "olim"larning qarashlari davomidir desak, xatoga yo'll qo'ymasmiz", deya munosabat bildiradi.

Shuningdek, J.Sager terminologiyadagi asosiy tushunchalarni aniqlagan shaxs bo'lib, u terminologiya tushunchalarni nomlaydi, degan fikrni bildirib, "terminologiya" terminiga xos asosiy uchta ma'noni aniqlaydi va quyidagicha ta'rif beradi: a) faoliyat: terminlarni to'plash, tavsiflash, standartlashtirish, taqdim etish va tarqalish jarayoni; b) nazariya: tushuncha va termin orasidagi bog'liqlikni tavsiflab o'rganuvchi gipotezalar, usullar va natijalar; d) lug'at (leksikon): maxsus soha (tushunchalarining) lug'ati.

E.Wright va G.Budin terminologiya qanday sohalar da ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritib, quyidagilarni belgilab berishgan: ilmiy-texnikaviy tarjima; ilmiy-texnikaviy aloqa; standartlashtirish; axborot almashinushi va axborot boshqarish tizimi; bitta va undan ko'p tillik muhitda ilm-fan sohasidagi munosabatlarni boshqarish; tilni tizimlashtirish (language planning).

S.Pavel va D.Nolet ta'riflariga ko'ra, terminologiya, birinchidan, "ilm-fanga, san'atga, muallifga yoki ijtimoiy obyektga doir maxsus so'zlar majmuasi" bo'lsa, ikkinchidan, maxsus til doirasida aloqa vositasi hisoblanadi.

O'zbek olimi X.Dadaboyevning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek tili muayyan terminologiyasi boyishi, to'ldirilishi va takomillashtishining bosh manbasi, boshqa tillarda kechayotganidek, shubhasiz, o'z lug'at boyligi ekanligi ayni haqiqatdir.

Bir qator olimlar tomonidan terminologiya so'zi, asosan, ikki xil ma'noda qo'llanilgan:

1. Terminologiya – muayyan sohalarda maxsus ma'noni ifodalovchi so'z va so'z birikmalarining majmuyi.

2. Terminologiya – terminlarning grammatik sathdagi o'rni va tilda amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan muayyan qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi lingvistikating alohida aspekti.

O.Ahmedov terminologiyaga tabiiy shakllanadigan leksik qatlama sifatida qarab, undagi har bir birlik iste'mol qilinishi uchun o'zining aniq ifodasi va chegarasiga, "yashashi" uchun esa optimal sharoitga egaligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u yana "...terminlar leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolingga ega bo'lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi. Zero, terminlar va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiridigan leksik birlklardir".

Shunday qilib, terminlar leksik va semantik jihatdan bir nechta turlarga bo'linishi va maxsus tushunchani anglatishi mumkin, tuzilishiga ko'ra esa sodda yoki murakkab qismlardan tashkil topadi. Tilga yangi kirib kelgan so'zlar neologizm deb atalsa, yangi terminlar uchun biz neotermin degan tushunchani qo'llaymiz.

Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasida mustaqillik yillari davrida amalga oshirilgan tadbirlar o'z samarasini bermoqda. O'zbekiston jahon axborot ham-jamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananuvchilar soni tobora oshib bormoqda. Jamiat va davlat boshqaruvida, xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida, bozor iqtisodiyotida, xalqaro aloqalarda va, umuman, jamiyatimizning barcha jabhalari da kompyuter ilmi va amaliyoti keng quloch yoydi. Jahon tilshunosligida AKT terminlarini tartibga solish ishlari bir til terminlari doirasida ham, ikki til terminlari doirasida ham olib borilgan, soha terminlari muayyan darajada tartibga solingan bo'lsa-da, milliy tilshunosliklarda AKT terminlarining lingvistik, leksikografik, semantik va tarjimaviy xususiyatlari aniqlanmagan, soha terminlarini tartibga solish mezonlari ishlab chiqilmagan. Shu bois AKT terminlarining mavzuviy guruhlarini aniqlab, leksik-semantik xususiyatlarini asoslash, terminlarning derivatsion va tuzilish modellarini belgilash, o'zlashma va baynalmilal terminlarning milliy tillarda barqarorlashuv jarayonlarini tadqiq qilish, tarjima qilish uslublarini takomillashtirish, terminlardagi sinonimik, antonimik va variantlilik holatlarini tartibga solish hamda maqbullarini qo'llash yuzasidan takliflar berish, leksikografik izohlarni takomillashtirish, tarjima lug'atlarini tuzish kabi masalalarning hal etilishi AKT sohalari rivojini ta'milash bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari ga muayyan darajada yengillik yaratilishiga olib keladi. Hozirgi kunda o'zbek tili leksikasining tez va o'zgaruvchan va faol qatlamini AKT terminologiyasi sohasiga doir leksik birlklar tashkil etadi. Shu o'rinda kompyuter lingvistikasiga oid olimlar qarashlarini o'rganadigan bo'lsak, V.A.Avrarin fikriga ko'ra, til siyosatining bevosita obyekti tilning funksional tomoni hisoblanadi. Tilning funksional tomoni tashqi ta'sirlarga sezuvchan bo'ladi. Jamiat tilning struktura tomonini ham ma'lum darajada boshqarishi mumkin, biroq uni bevosita emas, tilning funksional tomoni vositasida boshqaradi. Odatta, tilning struktur tomoniga matab, adabiyot, teatr, targ'ibot va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali, ya'ni til-

ning funksional tomoni bilan bevosita aloqador bo'lgan omillar va sharoitlar vositasida ongli ta'sir ko'rsatiladi.

Q.B.Bektayev rahbarligidagi "Lingvostatistika va avtomatlashtirish" guruhi a'zolari M.Avezovning "Abay yo'li" romani (4 kitob) tilining chastotali lug'ati so'zligini kompyuter yordamida tuzib chiqishgan. Mazkur chastotali lug'atda 20000 dan ortiq leksema va 60000 so'z shakli ("glossema") mavjud bo'lib, ular 466000 marta qo'llangan. Ushbu lug'at qozoq tilshunosligida kompyuter lingvistikasining rivojlanishiga asos bo'ldi. O'zbek tili materiallari bo'yicha kompyuter tilshunosligiga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar H.Arziqulov, S.Rizayev va S.Muhamedovlardir. Mazkur olimlar, asosan, kompyuter lingvistikasining statistik tahlil yo'nalishi bo'yicha izlanish olib borishgan.

Korijda, asosan, AQSh, Ukraina, Belorussiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiyada kompyuter lingvistikasi ga oid amalga oshirilgan tadqiqotlarning ko'lami keng. O'zbekistonda esa bu soha keyingi yillarda rivojlandi. Bajarilgan tadqiqotlar kam miqdorda bo'lsa-da, soha taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Amalga oshirilgan ishlar faqat statistik tahlil yo'nalishi bo'yicha bo'lib, ayrim ilmiy ishlar tarkibida masalaga shunchaki to'xtab o'tilgan, xolos. Bu holat o'zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar ko'p ekanligini ko'rsatadi.

R.R.Piotrovskiy bilan hammualliflikda yozgan kitobida S.Muhamedov lingvistik modellar, modelllashtirish jarayoni haqida ma'lumot keltiradi, o'zbekcha matnlarning kvantitativ modellarini taklif qiladi. Mazkur asarda turk gazeta matnlarining leksik-morfologik jihatdan amalga oshirilgan avtomatik tarjimasi ham berilgan. Sun'iy intellekt yaratish va injener lingvistikasi metodlari orqali o'zbekcha nutqni avtomatik qayta ishlash jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan o'zbekcha matnlarning leksik-morfologik tuzilishi statistik tahlili natijalari keltirilgan.

H.Arziqulov o'zbek mashina tilini yaratish maqsadi da so'z tarkibini tadqiq qildi. Olimning morfema va so'z yasalish strukturalari haqidagi fikrleri, matn statistikasi va chastotali lug'atlar tuzish prinsiplari, o'zbek tilidagi matnlarni kompyuter yordamida qayta ishlovchi hamda avtomatik tahrir dasturlarini yaratish borasidagi jiddiy tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida injener lingvistikasining shakllanishiga asos bo'ldi, kompyuter lingvistikasining yuzaga kelishini ta'minladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kompyuter lingvistikasi yirik sohadir. Uni qo'shimcha fan sifatida chuqur o'zlashtirib bo'lmaydi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bu sohada yuzlab olimlar, o'nlab ilmiy tekshirish institutlari ish olib borayotgan, yo'nalishlar, fakultetlar, xalqaro miqyosdag'i uyushmalar, yig'inlar tashkil etilayotgan bir paytda o'zbek kompyuter lingvistikasini rivojlanishiga masalalari imkon doirasida hal etilm-oqda. Birinchi vazifa sohaning har tomonlama yetuk mutaxassisini shakllantirishdan iborat. Shu maqsadda universitetlarda alohida kompyuter lingvistikasi yo'nalishlarini ochish, fakultetlar tashkil etish lozim bo'ladi. Mazkur yo'nalishda qiyosiy tilshunoslik, matematika, mantiq, kompyuter dasturlash tili, o'zbek tili, xorijiy til kabi fanlardan olingan bilimlar kompyuter lingvistikasi bo'yicha malakali mutaxassis shakllantirishni ta'minlaydi. Kompyuter lingvistikasi rivojlangan xorijdag'i yirik ilmiy tadqiqot markazlari bilan muttasil ilmiy aloqalar yo'liga qo'yiladi. Dunyo kompyuter tarmoqlarida o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasining yaratilishi va o'zbek tilidagi matnlarni avtomatik tarzda boshqa tillarga (yoki boshqa tildagi matnlarni o'zbek tiliga) tarjima qiluvchi dasturlarning yaratilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning yangi yo'nalishi bo'lgan kompyuter lingvistikasi bir qator nazariv va amaliy tilshunoslik yo'nalishlarining vujudga kelishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки) // Материалы научного симпозиума. – Москва: МГУ, 1971. – С. 68–71.
- Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977.
- Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vol. I-II. – London, 1967.
- Алексеева, 1998. <http://www.philology.ru>
- <https://fayllar.org/terminologiya-atama-nomenklatura.html>
- Felber H. Terminological work and standardization of terminology. – Paris, 1974.
- Sager, Juan C. A practical course in terminology processing // Juan C. Sager: with a bibliography by Blaise Nkwenti-Azech. – Amsterdam. Philadelphia: John Behjamins Publishing Company, 1990.
- Wright E., Budin G. Handbook of terminology management. Vol.1: Basic aspects of terminology management. – Amsterdam. Philadelphia: John Behjamins Publishing Company, 1997.
- Dadaboyev X. Hozirgi o'zbek tili qurilishida o'zbek tilining o'rni // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2015. – 24–31-betlar.
- Ahmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. Filol. fan. dok.diss. – Toshkent, 2016.
- <https://cyberleninka.ru/article/n/hozirgi-o-zbek-tilida-akt-terminlari-lug-atini-yaratish-masalasi>.
- <https://fayllar.org/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari-izohli-lugati.html>
- Аворин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). – Ленинград, 1975. – С. 177.
- Швейцер А.Л. Современная социолингвистика: Теория. Проблемы. Методы. – Москва: Наука, 1970.
- Мухамедов С.А., Пиоторовский Г.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан, 1986.
- Мухамедов С.А. Статистический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1980; Shu muallif. O'zbek tilining alfavitli-chastotali lug'ati.